

Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz! Termiz shahrida “Madaniyat karvoni”, “Ma’naviyat festivali” hamda milliy filmlar taqdimoti davom etmoqda



Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz! Termiz shahrida “Madaniyat karvoni”, “Ma’naviyat festivali” hamda milliy filmlar taqdimoti davom etmoqda

Termiz shahrida “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” shiori ostidagi navbatdagi tadbir “O‘zbekiston” mahallasidagi 1-sonli Bolalar musiqa va san’at maktabida tashkil etildi. Uchrashuvda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari Minxojiddin Mirzo, O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azim, O‘zbekiston xalq artisti, aktyor Gavhar Zokirova, xalqaro toifadagi notiqlik bo‘yicha trener, falsafa fanlari doktori Jamila

Shermuxamedovalar ishtirok etishdi.

Tadbirda taniqli san'at va madaniyat xodimlari hamda shoirlar bilan muloqot qilayotgan mahalla ahlining ayniqsa, yoshlarning kayfiyati ko'tarilib, madaniy va ma'naviy xordiq olishmoqda. Konsert dasturida san'atkorlar tomonidan ijro etilgan sho'h kuy-qo'shiqlar ishtirokchilarga bir olam quvonch bag'ishladi.

Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown

